

MAQOLLAR VA MATALLAR XALQ OG‘ZAKI IJODI JANRI SIFATIDA

Qosimova Nafisa Farhadovna

PhD, Dotsent, Buxoro davlat universiteti

Xayriyeva Ma’mura Fazliddinovna

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og‘zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janrlaridan biri hisoblangan maqollar xususida fikrlar va muallifning mazkur mulohazalarga nisbatan munosabati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, matal, xalq og‘zaki ijodi.

Millatning o‘zligini ko‘rsatuvchi milliy qadriyatlarini, xalqning madaniyatini ifodalovchi omillardan biri bu xalq og‘zaki ijodidir. Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og‘zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shu asnoda ularni „Xalqona axloq-odob qoidalari“ deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g‘oyat ixcham, lo‘nda tarzda ifoda etiluvchi ko‘rinishidir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma’lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug‘iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo‘lib yuzaga keladi. Ular insonlarning turli sohalardagi faoliyatлari jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o‘tgan turmush tajribalarining hosilasi, barqaror va o‘zgarmas, to‘g‘ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelganligini ko‘rsatadi.

Folklorda maqol janri hikmatga yo‘g‘rilganligi, g‘oyat ixcham, lo‘nda va obratzli ifodalanishi bilan xalq paremik ijodining bir qismini tashkil etadi. Biroq maqol janri bugungi kungacha alohida adabiy tur sifatida e’tirof etilmay, goh xalq nasri, goh xalq poeziyasi tarkibida mavhum holda kichik tur tarzida ko‘rib kelinmoqda.

Xalq og‘zaki ijodining asrlar osha, avloddan-avlodga, tillardan tillarga o‘tib, kamol topib kelayotgan o‘ziga xos janrlaridan biri bu – xalq maqollaridir. Ular ko‘p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Har bir xalqning o‘zligini ko‘rsatib turuvchi

alohida belgilari, xusiyatlari mavjud. Ushbu xususiyatlar ularning an'analarini, madaniyati, hayot tarsi, adabiyoti, xalq og'zaki ijodiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Xususan, o'tmishdan ota-bobolarning hayot tajribalarini aks ettirib sado berib turuvchi maqollarda ham o'z aksini topadi. Xalq og'zaki ijodidagi har bir janr xalqning intellektual salohiyatini, o'zligini, o'ziga xosligini ko'rsatuvchi vositadir.

O'zbek folklorshunoslari, jumladan, Sobirjon Sodiqov maqollarning paydo bo'lish jarayonini: Ko'pni ko'rgan, zukko va gappa chechan bir odam uni bir necha so'z vositasida yuzaga chiqaradi. Shu tariqa maqol paydo bo'ladi - deb izohlaydi. ¹Haqiqatdan ham, aslida avval og'zaki nutqda paydo bo'lувчи maqollar og'zaki nutqimizda keng qo'llaniladi. Ular nutqimizni ixcham va ravon, teran va mazmunli bayon qilishga yordam beradi. Zero, "So'z ko'rki – maqol" degan gap ham bejiz emas.

"Maqollar xalq aforistik tafakkurining kaliti bo'lib, hajman siqiq, mazmunan purhikmat, ommaviy va keng tarqalgan janridir. Ularda insonlarning tabiat va jamiyatga munosabatining hamma qirralari axloqiy - falsafiy hukm tarzida baholangan. Maqollar ota-bobolarning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalarini zamonlar osha yetkazishda ma'noviy ko'prik bo'lib, avlodlarning birlariga bog'lanishlarida beminnat xizmat qilib kelmoqda", - deydi atoqli folklorshunos olim O.Safarov. Darhaqiqat, maqollar o'zlarining ijtimoiy -g'oyaviy vazifalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Shu bois maqollarning mavzu ko'lami juda ham keng bo'lib, bu ko'lam chegara bilmaydi. Zero, ijtimoiy borliqning hech bir sohasi yo'qki, u maqollarda aks etmagan bo'lsa. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi sababli o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida necha martadan sinovlardan o'tadi.

Maqollar xalq ijodiyotining bebafo namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy – madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, "Maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati"²

Xulosa qilib aytganda, maqol va matallar xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janri hisoblanib, ularning paydo bo'lishi vaqtin noma'lum, ammo bir narsa shubhasiz: maqol ham, matal ham uzoq antik davrda paydo bo'lgan, shundan beri ular butun tarix davomida xalqqa hamroh bo'lib kelgan.

¹ Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir.T.: O'zbekiston Madaniyati. –1965.

² Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 с.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs—Maqollar— Пословицы.-Т.: Mehnat, –2000. –398 b.
2. Korunets I.V. Theory and Practice of Translating. - Vinnytsia: Nova Kniga, 2001. –265p.
3. Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. –103 p.
4. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir.T.: O‘zbekiston Madaniyati. –1965.
5. Mirzayev T., Musokulov A., Sarimsakov B. Uzbek folkproverbs. - T : Sharq, 2005. –408 p.
6. Mollanazar, H. Principles and methodology of translation. - Tehran: SAMT, 2001.– 115p.
7. Taylor A. The Proverb. –Harvard University Press, 1995. –234 p.
8. Trench, C.R. On the Lessons in Proverbs. -New York: Redfield, 2005.
9. <http://www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.html>
10. <http://www.cogweb.ucla.edu/Discourse/Proverbs/English.html>.